

“TASDIQLAYMAN”

Yoshlar ishlari agentligi

direktorining birinchi

o‘rinbosari – xarid

komissiyasi raisi



J. Xodjayev

Yoshlar ishlari agentligining elektron platformalarida foydalanish uchun
SMS-xabarnoma xizmatini ko‘rsatish yuzasidan

**ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO‘YICHA XARID QILISH
HUJJATI**

Toshkent 2022-yil

Kelishildi:


Ishlar boshqarmasi boshlig'i

Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i

Ichki audit xizmati boshlig'i

Yuridik byuro boshlig'i

Innovatsiya va raqamli texnologiyalarni
rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i



The image shows four handwritten signatures in blue ink, each placed on a horizontal line. The signatures are stylized and cursive. The first signature is at the top, followed by the second, third, and fourth signatures below it. The fourth signature is the largest and most prominent, with a long horizontal stroke at the bottom.

I. TANLASH ISHTIROKCHISI UCHUN MA'LUMOT

1. Eng yaxshi takliflarni tanlash predmeti.

Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid komissiyasi (bundan buyon matnda xarid komissiya deb yuritiladi) o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda – Qonun) hamda Vazirlar Mahkamasining "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 20-maydagi 276-son qarorlariga asosan amalga oshiradi.

Eng yaxshi takliflarni tanlashni tashkil qilishning asosiy maqsadlari quyidagilar:

Yoshlar ishlari agentligining axborot (elektron) tizimlari (www.yoshlardaftari.uz, www.yoshlarportali.uz, www.yoshlarforumi.uz va boshqa tizimlar)da foydalanish uchun SMS xabarnoma xizmatini ko'rsatish yuzasidan eng yaxshi takliflarni tanlash ko'zda tutilgan.

Xizmat (ish)larning maksimal narxi: QQS bilan **90 000 000 (to'qson million) so'm.**

Xizmat (ish)larni eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining texnik qismida joylashgan talablariga binoan bajarish shart.

Xizmatlarni ko'rsatish va ishlarni bajarish muddati: **2022-yil 31-dekabrgacha.**

2. Mazkur tanlash hujjatlarida ishlatiladigan tushunchalar.

Xizmatlarni ko'rsatish va ishlarni bajarish muddati: **70 kun.**

Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari (keyingi o'rinlarda matnda – Tanlash hujjatlari) talablari asosida tashkilotni aniqlash.

Tanlash o'tkazish tartibi – bir bosqichli.

Buyurtmachi – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi;

Manzili: Toshkent shahar, Shayhontoxur tumani Navoiy 11a

Tanlashni tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul shaxs – Ishlar boshqarmasi boshlig'i I.Ziyodilloev;

Tel.: (90) 514-47-74

3. Xarid komissiyasining vazifalari:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlashni o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;

zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlashi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki tanlashni amalga oshmagan deb topadi.

Tanlashning tashkilotchisi – Ishchi guruh. Uning vazifasiga quyidagilar kiradi:

Tanlash hujjatlarini ishlab chiqilishini ta'minlaydi va ularni o'rnatilgan tartibda talabgorlarga taqdim etadi;

- tanlash o'tkazilishi to'g'risida respublika tovar xom ashyo birjasining www.etender.uzex.uz portalida e'lon beradi;

- tanlash takliflarini baholash mezonlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

4. Texnik va tijorat takliflarni baholashda xarid komissiyasining vazifalari:

– ishtirokchilarning tanlashga taqdim etilgan moliyaviy hujjatlarini, takliflarni sifat va narx nuqtai nazaridan o'rganadi, tahlil qiladi va ko'rib chiqadi;

– tanlash asosida eng yaxshi sifat va narx taklifini aniqlaydi va qaror qabul qiladi.

Ishtirokchi – eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablarida ko'rsatilgan xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tajribaga ega bo'lgan tashkilotlar.

Ishtirokchi:

- taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;

- faqat tanlash hujjatlari talablariga muvofiq bitta taklifni taqdim etish huquqiga ega;

- taqdim etilgan taklifni taqdim etish muddati tugamaguncha qaytarib olish yoki o'zgartirish huquqiga ega.

5. Ishtirokchiga tanlashda qatnashish uchun qo'yiladigan talablari

5.1. Ishtirokchi taklifda qatnashish uchun e-tender.uzex.uz saytida joylashtirilgan e'lon belgilangan tartibda elektron shaklda taklif berish orqali ishtirok etadi.

Ishtirokchi tashabbusi bilan boshqa hujjatlar (sertifikatlar, o'tkazilgan tekshirishlar bo'yicha ma'lumotlar va shu kabilar) ham taqdim qilinishi mumkin.

5.2. Tanlashga quyidagi ishtirokchilar qo'yilmaydi:

- shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslari mavjud bo'lmagan;

- shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa ega bo'lmagan;

- soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud bo'lgan;

- insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxatida bo'lgan;

- o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud bo'lgan;

- Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi.

- avval imzolangan shartnomalar bo'yicha kelishilgan majburiyatlarni o'z muddatida bajarmagan.

5.3. Xarid komissiyasi ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatadi, agar:

u to'g'risida Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd mavjud bo'lsa;

unda soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;

o'ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilgan bo'lsa;

ishtirokchi xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;

ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida Agentlik tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa.

Xarid komissiyasining ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi qarori va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi hisobotga kiritiladi.

6. Tanlash doirasida hujjatlarning maxfiyligini ta'minlash

6.1. Tushgan takliflarning ko'rib chiqilishi, ularning tanlash komissiyasi a'zolari tomonidan baholanishi to'g'risidagi axborot maxfiy hisoblanadi hamda tanlash tartib-qoidasiga rasman aloqador bo'lmagan shaxslarga ma'lum qilinmaydi. Xarid komissiyasi a'zolari mazkur axborot oshkor qilinganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

II. ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO'YICHA XARID QILISH HUJJATLARI

7. Tanlashda ishtirok etish uchun taklifini berish tartibi

7.1. Tanlash o'tkazilganda ishtirokchilar tanlash bo'yicha elektron takliflarni o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.

7.2. Ishtirokchining tanlash taklifining ajralmas qismi bo'lgan elektron hujjatlar operator tomonidan belgilangan namunaviy shakllar asosida taqdim etiladi. Davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilgan tanlash taklifi ishtirokchi tomonidan tasdiqlanadi.

7.3. Tanlash taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin.

Bunda ishtirokchilarning tanlash takliflari mazkur eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid

qilish hujjatining ilovasidagi shaklga muvofiq hujjatlarni birlashtirish orqali taqdim etiladi. Ishtirokchining tanlash taklifidagi ma'lumotlar birlashtirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

7.4. Tanlash takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular ishtirokchilar, shuningdek, xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.

7.5. Tanlash ishtirokchisi bitta lotga faqat bitta tanlash taklifini berishga haqli.

7.6. Tanlash ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot (ma'lumot) va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javob beradi.

7.7. Tanlash ishtirokchisi taqdim etilgan tanlash takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tanlash taklifini chaqirib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

7.8. Joylashtirilgan e'londa ko'rsatilgan muddat va vaqtda davlat xaridlarining elektron tizimi tanlash takliflarini qabul qilishni to'xtatadi.

Tanlash ishtirokchisi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan davlat buyurtmachisiga ochiq elektron chat orqali so'rov yuborishga haqli.

Davlat buyurtmachisi so'rov tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash takliflarining ta'minlanishi zarurligi belgilagan taqdirda, ishtirokchi tanlash takliflari yuborilguniga qadar ta'minotning maqbulligini tasdiqlash to'g'risida ochiq elektron chat orqali so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so'rovga bir ish kuni ichida javob beradi.

III. ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO'YICHA XARID QILISH HUJJATLARINI TAYYORLANISHI

8. Tanlashda qatnashish harajatlari

8.1. Tanlashda ishtirok etish va tanlash hujjatini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar ishtirokchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

8.2. Narx taklifida ko'rsatilgan narx tanlash taklifi narxi hisoblanadi.

8.3. Tanlash taklifi narxi milliy valyuta – so'mda to'lanishi lozim.

8.4. Xizmat (ish) narxi taklifga barcha harajatlarni, ya'ni soliq hamda budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar kiritiladi.

8.5. Ishtirokchi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va bajariladigan ishlar bo'yicha narxlar xizmatlarni ko'rsatish majburiyatlarini ohiriga yetkazilmagunga qadar o'zgartirilmaydi (xarid komissiyasining narxlarni tushirish bo'yicha muzokaralar olib borish natijasida o'zgartirishlar kiritilishi mumkin).

8.6. Narxlarning oshishiga qarab o'zgartiriladigan narxlarni ko'zda tutuvchi tanlash takliflari istalgan bosqichda, tanlash talablariga javob bermaydi deb qaraladi va xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi rad etiladi.

9. Tanlashda qo'llaniladigan til

9.1. Ishtirokchilar tomonidan berilayotgan takliflar, Buyurtmachi va ishtirokchi o'rtasidagi xatlar va barcha tegishli hujjatlar o'zbek yoki rus tilida tayyorlanadi.

10. Muqobil takliflari

10.1. Past texnik (funktional) ko'rsatkichlarga ega bo'lgan mahsulot (xizmat) ko'rinishida berilgan tanlash takliflari ko'rib chiqilmaydi.

11. Tanlash natijalarini sarhisob qilish

11.1. Tanlash xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

11.2. Ishtirokchi tomonidan birlashtirilgan fayllar uning tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda davlat xaridlarining elektron tizimidagi to'ldirilishi majburiy bo'lgan elektron maydonlar to'ldirilishi kerak.

11.3. Davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan maydonlar to'ldirilmagan bo'lsa yoki biriktirilishi majburiy bo'lgan fayllar mavjud bo'lmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi. Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

11.4. Agar tanlash taklifi Qonunning va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo'lsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlash taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo'yicha xarid komissiyasi mas'ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ishtirokchining tanlash taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

IV. TANLASH TAKLIFLARINI BAHOLASH VA G'OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI

12. Tanlash takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash

12.1. Tanlash g'olibini aniqlash uchun tanlash takliflarini baholash tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi.

12.2. Tanlash takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasining mas'ul kotibi tanlash ishtirokchilaridan ularning tanlash takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi.

12.3. Tanlash taklifi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari bilan belgilangan muddat mobaynida kuchda qoladi.

12.4. Tanlash taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

12.5. Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

12.6. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda tanlash taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

Tanlash takliflarini baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, eng past narx taklif etgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Zaxiradagi g'olibni aniqlash mazkur badda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

12.7. Tanlash takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan dastlabki elektron bayonnomada qayd etiladi va tanlash o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi a'zolari tomonidan ERIdan foydalangan holda imzolanaadi.

12.8. Dastlabki elektron bayonnoma u rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimida muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtiriladi.

12.9. Tanlashning istalgan ishtirokchisi dastlabki elektron bayonnoma e'lon qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisi tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha davlat xaridlarining elektron tizimi orqali e'tirozlar yuborishga haqli.

12.10. Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar tushmagan bo'lsa, bu to'g'risida xarid komissiyasining tegishli majlisi elektron bayonnomasi rasmiylashtiriladi va davlat buyurtmachisi bilan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

12.11. Tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha tanlash ishtirokchilaridan e'tirozlar tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ikki ish kuni ichida ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

12.12. Davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi elektron bayonnomasi

rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

12.13. Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

13. Ishtirokchilarning takliflarini baholash

13.1. Ishtirokchilarning takliflarini baholash mezonlari:

T/r	Mezonlar	Baholash	Izoh
1.	Xizmatlarni o'z vaqtida bajarish uchun rahbar tomonidan imzolangan Kafolat xati	maksimal 5 ball	Texnik talablarga muvofiq kelishiga qarab baholanadi
2.	Taqdim qilingan xizmatlarning samaradorligi, kutilayotgan natijalarning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari yuqoriligi.	maksimal 5 ball	Ballar ishtirokchilar taqdim etgan takliflardan kelib chiqib shakllanadi
3.	Xizmat ko'rsatish uchun moddiy texnik bazasi darajasi yetarli bo'lishligi.	keladi (5 ball) /kelmaydi (0 ball)	Tanlovda ko'rsatilgan ish (xizmat)ni bajarish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika bazasi ro'yxati ilova qilinishi, tashkilotni saqlash uchun 3 oylik smetasi hamda smetada ko'rsatilgan mablag'lari mavjudligi to'g'risida ma'lumotnoma
4.	So'nggi 1-yilda o'xshash ta'minotlar/ishlar bajarishi bo'yicha tajribasi.	maksimal 5 ball	Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risida umumiy ma'lumot ilova qilinadi.
5.	Tanlash ishtirokchisining tashkiliy faoliyati qonunchilik hujjatlariga hamda tanlash maqsadlariga muvofiqligi	maksimal 5 ball	Ballar qatnashchilar taqdim etgan tashkiliy hujjatlardan (Ustav, guvohnoma) kelib chiqib shakllanadi
Jami maksimal ball		25 ball	

13.2. Minimal o'tish balli **15 ball** deb belgilanadi.

13.3. Tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tanlash ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

13.4. Tanlashda g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi.

13.5. Tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborot ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda, xarid komissiyasi bunday ishtirokchini xarid qilish tartib-taomilining istalgan bosqichida tanlashda ishtirok etishdan chetlatishga haqli.

13.6. Tanlash takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasi tanlash ishtirokchisidan uning tanlash takliflari borasida tushuntirishlar berishini so'rashi mumkin.

13.7. Ishtirokchilarning tijorat takliflarini barcha uchun teng shartlar asosida o'tkazish maqsadida ularning tanlash takliflarini baholashda, sifatli mahsulot yetkazib berishdan (xizmat ko'rsatishdan, ish bajarishdan) iborat bo'lgan tanlash takliflari bo'yicha qonunchilik asosida qo'shimcha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tomonidan soliq summasi kiritib hisob qilinadi.

14. Takliflarning mos kelmasligi

14.1. Tanlash hujjatlarini tekshirish chog'ida aniqlangan xatolar mavjud bo'lgan taqdirda xarid komissiyasi:

ishtirokchiga tanlash taklifiga tuzatish kiritish imkoniyatini berishi;

takliflarni baholashda, ish (xizmat) narxi bilan birlik narxi va sonini ko'paytirish natijasida olingan yakuniy narx o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, ish (xizmat) narxi ustunlik qiladigan, umumiy narxga tuzatish kiritiladigan qaror qabul qilishi mumkin.

Agar so'zlar bilan yozilgan summa (narx) bilan raqamda ko'rsatilgan summa (narx) o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, u holda so'zlar bilan yozilgan summa (narx) ustunlik qiladi.

14.2. Agarda ishtirokchi xatolarni to'g'rilashdan bosh tortsa, uning tanlash taklifi xarid

komissiyasining qarori bilan chetlashtiriladi.

14.3. Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi huquqi boshqa yuridik shaxsga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

14.4. Tanlash quyidagi hollarda bo'lib o'tmagan deb e'lon qilinadi:

tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytda faqat bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta ham taklif taqdim etilmagan bo'lsa;

barcha tanlash takliflari tanlash hujjatlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lmasa;

barcha tanlash takliflarida tanlash hujjatlari shartlari bilan talab qilinadigan hujjatlar mavjud bo'lmasa;

barcha ishtirokchilarning taklif etgan narxlari tovarning boshlang'ich qiymatidan ancha yuqori bo'lsa;

tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos keladigan kamida ikkita taklif olinmagan bo'lsa.

14.5. Tanlashning bo'lib o'tmagan, deb e'lon qilinishi tanlash ishtirokchilaridan biron-birining mulkiy yoki boshqa javobgarligiga olib kelmaydi.

V. SHARTNOMANI RASMIYLASHTIRISH

15. Shartnomani rasmiylashtirish va tuzish

15.1. Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan boshlab o'n ish kunidan kechiktirmasdan tuziladi.

15.2. Tanlashni o'tkazish natijalariga ko'ra shartnoma elektron shaklda tuziladi hamda shartnomalarning yagona reestriga kiritiladi.

15.3. G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

15.4. Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

15.5. Tanlash g'olibi miqdor, sifat hamda texnik ko'rsatkichlari bo'yicha shartnoma talablarini bajarmasa qonun doirasida (yoki shartnoma talablariga asosan) javobgarlikka tortiladi.

VI. BOB. TIJORAT QISMI

16. Tijorat takliflari bahosi va uni belgilash tartibi

16.1. Tanlash ishtirokchisi talab qilingan xizmat(ish)lar uchun narxlarini o'zlarining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilaydi.

16.2. Xizmat (ish) bahosi (taklif)ga jumladan tanlash, soliqlar, budjet va nobudjet jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha xarajatlar qo'shilishi lozim.

16.3. Ishtirokchi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatning (ish bajarishning) to'liq amalga oshirish davriga belgilanib, o'zgartirilishi mumkin emas.

16.4. Qaysi bosqichda bo'lmasin, bahoni ko'tarishga yo'naltirilgan tanlash takliflari tanlash savdolari talablariga javob bermaydigan hisoblanib, xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

17. Tanlash valyutasi

17.1. Tanlash takliflari O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi so'mda taqdim etiladi.

18. Xizmatlarni ko'rsatish (ishlarni bajarish) shartlari va muddati

18.1. Oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlanadi.

19. Moliyalashtirish shartlari va jadvali

4.1 Avvaldan to'lov O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida umumiy shartnoma qiymatining 30 %, qolgan 70 % shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

20. Shartnomani moliyalashtirish manbai

5.1. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Mahsulotni yetkazib berish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) bo'yicha tuzilgan Shartnoma

qonunchilik hujjatlari – O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, «**Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to‘g‘risida**”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga mos bo‘lishi lozim.

Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid
qilish hujjatiga ilova

ning

(tashkilot nomi)

ARIZA (TALABNOMA)SI

1. LOYIHANING TITUL VARAG'I	
1.1. Ariza yuborilayotgan tanlovning mavzusi	
1.2. Tanlovning yo'nalishi	
1.3. Xizmatning nomi	
1.4. Ariza taqdim etgan tashkilotning nomi (Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Nizomga muvofiq)	
1.5. Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana (kun, oy, yil) va guvohnoma raqami	
1.6. Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan tashkiliy-huquqiy shakli	
1.7. Faoliyat hududi (Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Nizomga muvofiq)	
1.8. Talabgor tashkilotning rekvizitlari (yuridik va pochta manzili, telefon, faks, veb-sayt, elektron manzili va boshqalar)	
1.9. Tashkilot rahbarining F.I.Sh. va aloqa bog'lanish ma'lumotlari (manzili, elektron pochta (e-mail) manzili, telefon kodi albatta ko'rsatilishi lozim)	
1.10. Tashkilot buxgalterining F.I.Sh. va aloqa bog'lanish ma'lumotlari (manzili, elektron pochta (e-mail) manzili, telefon kodi albatta ko'rsatilishi lozim)	
1.11. Tashkilotning tasdiqlangan shtat jadvalidagi xodimlar soni	
1.12. Xizmatni amalga oshirish muddati (boshlanish sanasi – tugash sanasi)	
1.13. So'ralayotgan mablag' miqdori (so'mda)	